

DAVLAT XARIDLARI TO‘G‘RISIDAGI QONUN HUJJATLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING JINOIY-HUQUQIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Shukurova Shahnoza Muqumjonovna

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Moliya va moddiy-texnika ta’minoti departamenti katta inspektori, katta leytenant

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat xaridlari tushunchasining paydo bo‘lish tarixi, tushunchasi, davlat xaridlari to‘g‘risidagi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik, masalalari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi JKda alohida javobgarlik belgilash to‘g‘risida ilmiy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: davlat xaridlari, public procurement, javobgarlik, ma‘muriy javobgarlik, korrupsiya, tender, qonunchilik.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УГОЛОВНО-ПРАВОВЫХ АСПЕКТОВ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА НАРУШЕНИЕ ЗАКОНОДАТЕЛСТВА О ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПКАХ

Шукурова Шахноза Мукумжоновна

Старший инспектор Департамента финансового и материально-технического обеспечения Министерства внутренних дел Республики Узбекистан, старший лейтенант

Аннотация. В данной статье рассматриваются история возникновения понятия государственных закупок, само понятие, ответственность за нарушение законодательства о государственных закупках, значение данного правонарушения. Особое внимание уделяется проблемным вопросам закупок и путям их решения, особенностям государственных закупок, случаям нарушения законодательства при организации закупок. Разработаны рекомендации по снижению вероятности возникновения таких нарушений. В статье рассматриваются

вопросы установления в Уголовном кодексе Республики Узбекистан особой ответственности за нарушение законодательства о государственных закупках, а также формы вины, мотивы и субъект данного преступления. Подчеркивается общественная опасность этих преступлений и их негативные последствия.

***Ключевые слова:** государственные закупки, публичные закупки, ответственность, административная ответственность, коррупция, тендер, законодательство.*

IMPROVING THE CRIMINAL LAW ASPECTS OF LIABILITY FOR VIOLATIONS OF PUBLIC PROCUREMENT LEGISLATION

Shukurova Shahnoza Muqumjonovna

Senior Inspector of the Department of Finance and Logistics Support of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Senior Lieutenant

***Abstract.** This article examines the history of the concept of public procurement, the concept itself, liability for violating public procurement legislation, and the significance of this offense. Particular attention is paid to problematic issues in procurement and ways to address them, specific features of public procurement, and cases of legislative violations in procurement organization. Recommendations have been developed to reduce the likelihood of such violations occurring. The article explores the establishment of special liability in the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan for violating public procurement legislation, as well as the forms of guilt, motives, and subjects of this crime. The social danger of these crimes and their negative consequences are emphasized.*

***Keywords:** government procurement, public procurement, responsibility, administrative liability, corruption, tender, legislation.*

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni 2021-yil 22-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolanishi davlat xaridlari sohasidagi davlatning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligiga tahdid soluvchi korrupsiyaviy jinoyatlarga chek qo‘yishga huquqiy asos bo‘ldi.

Xususan, davlat xaridlari sohasidagi qonunbuzilishi holatlarini oldini olishning mantiqiy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida 158-sonli Farmoni ham huquqiy zamin bo‘ldi. Mazkur farmonda Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini 2 barobarga kamaytirishga erishish, davlat xaridlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish orqali amalga oshirishda mablag‘larni talon-toroj qilish holatlari, tovar va xizmatlarning narxi bozor qiymatidan oshib ketishining oldini olish bo‘yicha jamoatchilik nazoratini to‘laqonli joriy qilish, 100 foiz normativ-huquqiy hujjatlarning «korrupsiyadan xoli qonunchilik» tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta‘minlash” vazifalari belgilangan.

Mamlakatimizda davlat xaridlari bilan bog‘liq munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi. Mazkur qonunga muvofiq, davlat xaridi deyilganda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) davlat buyurtmachilari tomonidan pulli asosda olish jarayoni tushuniladi. Shuningdek, davlat xaridlarining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- davlat buyurtmachisining kasbiy mahorati;
- asoslanganlik;
- moliyaviy mablag‘lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- tortishuv va xolislik;
- mutanosiblik;
- davlat xaridlari tizimining yagonaligi va yaxlitligi;
- korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik.

Davlat xaridlarining asosiy prinsiplari davlat xaridlari jarayonining barcha bosqichlarida qo‘llanilishi kerak [1].

A.Yurchenkoing "Gosudarstvennye zakupki: sovremennye problemy" nomli maqolasida - “davlat haridlari tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni xarid qilish jarayoni samaradorligi va nafliligini oshirishi, ushbu xaridlarni amalga oshirishda oshkoralik va shaffoflikni ta‘minlashi, shuningdek ushbu sohadagi korrupsiya va boshqa suiste‘molchiliklarning oldini olish kerak” [3]degan fikrni olg‘a suradi va echim sifatida elektron va shaffof platformani taklif qiladi.

A.Edasi va Z.Vdovenkolar esa “Gosudarstvennyye zakupki: osnovnyye napravleniya i tendensii” nomli ishida – “to‘g‘ri va o‘z vaqtida qabul qilingan qonunlar davlat haridlari sohasidagi mutasaddi tashkilotlar vakolatlarini va savdo tartibini aniq belgilab beradi. Bu esa o‘z navbatida savdo jarayonlarining yuqori samarasini ta‘minlaydi” [4] deb qoidalarini aniq belgilash, jarayonlarni shaffof va tezkorlik asosida amalga oshirishga yordam berishini nazarda tutadi.

Bizning fikrimizcha, mazkur olimlarning davlat xaridlari jarayonida oshkoralik va shaffoflikni ta‘minlash, shu bilan birga korrupsiyava suiste‘molchiliklarning oldini olishga qaratilgan elektron platformalardan foydalanish to‘g‘risidagi fikr bugungi kunda juda dolzarb hisoblanadi. Zero, davlat xaridlari tizimida shaffoflikni ta‘minlash nafaqat moliyaviy mablag‘lar tejalishiga, balki fuqarolarning davlat boshqaruviga nisbatan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Elektron xaridlar mexanizmi orqali ma‘lumotlarni real vaqt rejimida ochiq taqdim etish, ishtirokchilar o‘rtasida teng raqobat muhitini shakllantiradi va har qanday subyektiv ta‘sirlarni minimallashtiradi. Shu jihatdan, mualliflarning elektron va shaffof platformalarni joriy etish bo‘yicha taklifi amalda ham samaradorlikni oshirishga qodir mukammal echim sifatida baholanadi.

Shu o‘rinda bir savol paydo bo‘lishi tabiiy, ya‘ni Davlat xaridlari tushunchasi qachon paydo bo‘lgan? Davlat xaridlari qadimgi sivilizatsiyalar davrida davlat ehtiyojlari uchun tovar va xizmatlar xarid qilish oddiy amaliyot sifatida mavjud bo‘lgan. Misr va Rimda qurilish ishlari, harbiy ta‘minot va infratuzilma loyihalari xususiy pudratchilar orqali amalga oshirilgan. Rimda “publicani” deb atalgan pudratchilar yo‘llar qurilishi, soliq yig‘ish va harbiy logistika uchun mas‘ul bo‘lgan. Keyinchalik Yevropa davlatlari ham qurol-yarog‘, oziq-ovqat va qurilish xizmatlarini xususiy sheriklardan sotib olgan. Biroq bu jarayonlar huquqiy normalar bilan tartibga solinmagan va zamonaviy tender amaliyoti mavjud bo‘lmagan.

XIX asrda iqtisodiyotda davlat ishtirokining ortishi natijasida davlat sarflari, davlat byudjeti va uning iqtisodiyotga ta‘siri ilmiy jihatdan o‘rganila boshlandi. Adolf Vagnerning “davlat xarajatlari o‘sishi qonuni”, Lorens Shtayn, Karl Menger kabi olimlarning davlat moliyasiga oid ishlari davlat xaridlarini iqtisodiy kategoriya sifatida shakllantirishga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Aynan shu davrda davlat tomonidan xususiy sektordan tovar va xizmatlar sotib olishi bozor munosabatlari va ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog‘liq tizimli jarayon sifatida talqin qilinadi.



Sanoatlashuv va davlat iqtisodiyotining kengayishi natijasida davlat xaridlari alohida ilmiy tadqiqot obyektiga aylandi. AQSH va Yevropada davlat pudrati, tender jarayonlari, shaffoflik va nazorat masalalari bo'yicha ilmiy maktablar shakllandi. Bu davrda “public procurement” atamasi ilmiy adabiyotlarda mustahkam o'rin egallay boshladi.

1994-yilda Jahon savdo tashkiloti tomonidan qabul qilingan Government Procurement Agreement (GPA) davlat xaridlarini xalqaro me'yoriy asos bilan ta'minlagan ilk hujjat hisoblanadi. Unda tender shaffofligi, raqobatning ta'minlanishi, korrupsiyaning oldini olish kabi tamoyillar belgilab berilgan. Bu esa davlat xaridlari nazariyasi va amaliyotining birlashgan xalqaro huquqiy asosini yaratdi.

Davlat xaridlari tushunchasi ilmiy kategoriya sifatida XIX asr oxirida shakllana boshlagan bo'lsa-da, uning mukammal nazariy asoslari XX asrda kontrakt va auksion nazariyalari rivoji bilan mustahkamlandi. Davlat xaridlari hozirgi paytda iqtisodiyot, huquq, boshqaruv va axborot texnologiyalari kesishmasidagi kompleks ilmiy yo'nalishga aylangan. Ushbu sohadagi ilmiy ishlanmalar davlat sarflarining samaradorligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, davlat xarajatlaridagi davlat xaridlarining ulushi Yaponiyada 41,6 foizni, Koreyada 40,1 foizni, Germaniyada 35,3 foizni, Buyuk Britaniyada 31,7 foizni, Fransiyada 25,6 foizni, AQSHda 24,5 foizni tashkil etadi. Shuningdek, davlat xaridlari sohasida mahalliy korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Braziliyada 8-25 foizgacha, Meksika va Misrda 15 foizgacha, Malayziyada 2,5-10 foizgacha narx imtiyozlari berilishi belgilangan [7]. Ushbu raqamlar davlat xaridlari soxasiga amal qilish qanchalik muhimligi va ushbu turdagi qonunchilikni buzish davlat iqtisodiyotiga qanchalik putur etkazishi mumkinligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat xaridlari tizimini isloh qilish va uni elektronlashtirish borasida ham huquqiy ham tashkiliy yo'nalishlar bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, so'nggi yillarda sohaning me'yoriy-huquqiy bazasining maqsadi nafaqat sohani tartibga solish, balki uni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilayotganini ko'rishimiz mumkin. Aynan shu yo'nalishda tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar normalari takomillashtirib va soddalashtirib borilmoqda.



Yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida muhim bosqich hisoblangan xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilab beruvchi asosiy hujjat - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligining 2018-yil 15-maydagi 185-son buyrug‘iga asosan tasdiqlangan Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom [8] normalari “2020-yil Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qilinishi munosabati bilan elektron davlat xaridlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan joriy yilda to‘liq qayta ko‘rib chiqildi va unga tegishli qo‘shimchalar kiritildi. Xususan, ushbu nizom elektron tanlov o‘tkazish tartib-taomillari deb nomlangan 3-bob va Elektron tender o‘tkazish tartib-taomillari deb nomlangan 4-bob bilan to‘ldirildi.

Bunda avval qonunchilikda bo‘lmagan mutlaqo yangi normalar - elektron tanlov va tender mexanizmlari orqali xaridlarni tashkil etish shartlari, elektron tender o‘tkazishda tender hujjatlarini ishlab chiqish va tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonni joylashtirish bo‘yicha normalar bilan boyitildi.

Bundan tashqari, elektron davlat xaridlarini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan maxsus axborot portali va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi o‘rtasidagi ma’lumotlar bazasi elektron hamkorligi orqali davlat buyurtmachilari bilan tuzilgan shartnomalar reestri bo‘yicha onlayn ma’lumot almashinuvi amalga oshirilishi belgilab berildi.

Bu esa, bir tomondan, davlat xaridlari ishtirokchilari bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari uchun xarid jarayonini tezlashtiradigan qulay sharoitlar yaratilmoqda [9].

Korrupsiya omillarini bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga qaramay, afsuski, davlat xaridlari sohasi korrupsiya omillari yuqori bo‘lgan tizimlardan birilgicha qolmoqda. Tahlillarga ko‘ra, so‘nggi 6-yilda 791 nafar shaxs davlat xaridlaridagi noqonuniy xatti-harakatlari bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Ushbu sohada ma’muriy javobgarlik holati ham oshib bormoqda. Masalan, 2022-yilda 662 ta, 2023-yilda 1 ming 376 ta, 2024-yilda 1 ming 334, joriy yilning 6 oyida esa 658 ta ma’muriy huquqbuzarliklar sodir etilgan [10].

Qonunbuzilish holatlarining asosiy qismini xaridlar to‘g‘risidagi qonunchilikka zid ravishda to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar tuzish, qimmat narxlarda qabul qilish, tanlov va tender o‘tkazish tartiblarini buzish, xaridlar to‘g‘risidagi



ma'lumotlarni portalga kiritmaslik, xarid turini noto'g'ri tanlash, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yish kabi holatlar tashkil etmoqda,

Garchi davlat xaridlari sohasidagi ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar har qanday davlatning moliyaviy va iqtisodiy barqarorligiga tahdid solsa-da, alohida jinoiy tarkib sifatida belgilanmagan mazkur ijtimoiy xavfli qilmish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining “Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar”, “O'zgarlar mulkni talon- taroj qilish” jinoyatlari boblaridagi jinoyatlar tarkibiga kiradi.

Davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi davlatning iqtisodiy asoslariga qarshi qaratilganligi, jinoiy tajovuz muayyan mamlakat iqtisodiyotiga putur etkazishidir, shuningdek davlat xaridlari sohasidagi ijtimoiy xavfli qilmishlar nafaqat milliy, balki xalqaro xususiyatga ega jinoyatlar sirasiga kirishi va nafaqat alohida davlatning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligiga, balki xalqaro hamjamiyatga ham tahdid solishi bilan belgilanadi.

Fikrimizcha, yuqoridagilarga asoslanib, mazkur ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarni sodir etganligi holati yuzasidan Jinoyat kodeksida alohida javobgarlik kiritish taklif etiladi.

Taklif etilayotgan jinoyatning obyeksi va obyektiv tomoniga oid xususiyatlari. Jinoyat obyeksi esa o'z navbatida jinoyat qonuni bilan himoyalangan ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi. Jinoiy tajovuzga yo'naltirilgan obyektini to'g'ri aniqlash jinoyatning to'g'ri kvalifikatsiya qilish va ijtimoiy xavflilik darajasini belgilash imkonini beradi. Jinoyat obyeksi jinoyat huquqi nazariyasining eng muhim masalalaridan biridir. Davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlar bevosita davlatning iqtisodiy asoslariga qarshi yo'naltirilgan. Bunda davlat buyurtmachisi deganda davlat xaridlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxs tushuniladi. Davlat xaridlarini amalga oshirishda ushbu huquq bo'yicha shartnoma tuziladi. Uning mazmuni davlat buyurtmachisi va davlat xaridlari ijrochisi o'rtasida davlat xaridlariga oid huquq va majburiyatlarni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuvdan iborat. O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasining davlat xaridlari elektron tizimi operatori sifatida, buyurtmachilar va etkazib beruvchilarning davlat xaridlarida ishtirokini soddalashtirish maqsadida 2021-yilda xarid.uzex.uz yangi yagona portal joriy etildi.

Shu bilan birga, mazkur ijtimoiy xavfli qilmish tamagirlik, shaxsiy manfaatdorlik, mansabparastlik niyatlarida va moddiy foyda olish, reja (topshiriq)ni bajarish, xizmatda ko'tarilish maqsadida amalga oshiriladi.

Jinoyatning subyektini 18 yoshga to'lgan aqli raso shaxs bo'lishi mumkin. Shuningdek, mazkur jinoyatning subyektini ham umumiy, ham maxsus bo'lishi mumkin. Chunki, davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati mansabdor shaxs yoki tijorat yoki boshqa tashkilotda boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi shaxs tomonidan sodir etilishi nafaqat bu shaxsning, balki u sodir etgan jinoyatning ham ijtimoiy xavflilik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Bu, shu jumladan, davlat iqtisodiyotiga zarar etkazish uchun sharoit yaratilishi sabablidir

Shu o'rinda, davlat xaridlari to'g'risidagi qonunni buzganlik uchun javobgarlik masalasi bo'yicha xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil qilib ko'rib chiqadigan bo'lsak, xususan, Rossiya Federatsiyasining 2001-yil 30-dekabrda 195-FZ-sonli Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksi alohida o'rin tutadi. Mazkur kodeksga ko'ra davlat xaridlari sohasidagi qonunbuzarliklarni quyidagi toifalarga ajratilgan:

- birinchidan, protsessual talablarga rioya qilmaslik. Bu tenderlar o'tkazish, takliflarni baholash va shartnomalar tuzishning belgilangan qoidalaridan har qanday og'ishni o'z ichiga oladi;

- ikkinchidan, manfaatlar to'qnashuvi, ya'ni xaridlar bo'yicha qaror qabul qiluvchi shaxslarning tender natijalaridan shaxsiy manfaatdorligi holatlari;

- uchinchidan, tender natijalarini manipulyatsiya qilish. Bu g'oliblarni noholis tanlash yoki tender natijalarini buzib ko'rsatishga qaratilgan harakatlarni o'z ichiga oladi;

- to'rtinchidan, shartnoma shartlarini buzish. Bu etarli asoslarsiz shartnoma shartlarini o'zgartirish yoki shartnoma shartlarini bajarmaslikda namoyon bo'lishi mumkin [11].

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Rossiya Federatsiyasida davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqi davlat va mahalliy xaridlar sohasida o'z shu soxaga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadigan qat'iy qonunchilikka ega bo'lib, bu hujjatlar a'zo davlatlarning milliy qonunchiligiga kiritilishi shart. Asosiy tamoyillar shaffoflik, kamsitmaslik, teng munosabat va mablag'lardan samarali foydalanishni o'z ichiga oladi.

Yevropa Ittifoqi, shuningdek, korrupsiya xavfini kamaytirish va qulaylikni oshirish maqsadida elektron xarid tizimlaridan faol foydalanmoqda.

Fikrimizcha, Yevropada qo‘llaniladigan tamoyillar va yondashuvlar standartlar va talablarga mos keladigan milliy qonunchilikni ishlab chiqish va joriy etish orqali o‘zgashtirish mumkin.

Tizim qoidabuzarliklar uchun qat’iy javobgarlik choralari, jumladan jarimalar, etkazib beruvchilar ro‘yxatidan chiqarish va jinoiy ta’qibni nazarda tutadi.

Singapur davlat xaridlari sohasida yuqori darajadagi oshkoraligi va samaradorligi bilan mashhur. Singapurning xarid tizimi butunlay elektron bo‘lib, bu korrupsiya xavfini kamaytiradi va jarayon samaradorligini oshiradi.

Tizimning asosiy elementlari tender hujjatlari va xaridlar natijalarini majburiy e‘lon qilishni, shuningdek, etkazib beruvchilarning malakasiga qo‘yiladigan qat’iy talablarni o‘z ichiga oladi.

Fikrimizcha, Singapur tajribasini o‘zlashtirish uchun xarid jarayonining barcha bosqichlarini e‘lon qilishni talab etadigan davlat xaridlarining keng qamrovli elektron tizimini ishlab chiqish va joriy etish mumkin.

Shunday qilib, xalqaro tajribani moslashtirish puxta rejalashtirish, milliy xususiyatlarni inobatga olish hamda yangi mexanizmlar va standartlarni bosqichma-bosqich joriy etishni taqozo etadi.

Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi qonunning 43-moddasida elektron do‘kon tushunchasiga izoh berilgan. Unga ko‘ra, elektron do‘kon maxsus talablar tatbiq etilmaydigan iste‘mol tovarlarining va boshqa tovarlarning davlat xaridlarini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan maxsus axborot portalidagi maxsus maydonchadir.

Elektron do‘konda davlat xaridlari bir yilda bir marta, davlat buyurtmasisiz, bazaviy hisoblash miqdorining 2 ming 500 barobaridagi summadan ko‘p bo‘lmagan tovarlar uchun amalga oshiriladi.

Ushbu cheklovlarga amal qilinmagani sababli, 2018-2019-yillar davomida va 2020-yilda besh oy davomida 278 ta davlat tashkiloti tomonidan 100 milliard so‘mli bitimlar elektron do‘kon orqali tuzilib, cheklovlardan ortiqcha xaridlar amalga oshirilgan. Qonunda elektron do‘konda davlat xaridlari bir davlat buyurtmasi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 25 barobaridan oshmaydigan miqdordagi ishlar uchun amalga oshirilishi qayd etilgan. Lekin tekshiruvlar natijasida cheklangan miqdorda amal qilmasdan 176 milliard so‘mli bitimlar elektron do‘konlar orqali



tuzilib, cheklovdan ortiqcha xizmatlar amalga oshirilgan. Yana boshqa birida 321 milliard so‘mli bitimlar qismlarga bo‘lingan holda elektron do‘kon orqali xaridni amalga oshirgan. Ammo bularning birortasiga bo‘yicha na ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik belgilangan.

Fikrimizcha, birinchi navbatda davlat xaridlari to‘g‘risida qonun talablarini buzganlarga nisbatan jinoiy javobgarlik chorasini belgilovchi normalarni kiritish va umuman davlat xaridlarini ochiq va shaffof bo‘lishini ta‘minlovchi elektron-monitoring tizimni yaratish lozim. Noqonuniy ishlarning eng asosiy sababi - ochiqlikning yo‘qligida. Bundan tashqari, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi taqozo etsa, qonun yangi tahrirda qabul qilinishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, davlat xaridlari sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma‘muriy va jinoiy javobgarlikni takomillashtirish byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish va davlat xaridlari tizimiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashning asosiy omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:


1. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida 158-sonli Farmoni
3. Yurchenko Ye. V., Yurchenko A. A. “Gosudarstvennye zakupki: sovremennye problemy” VESTNIK FINANSOVOGO UNIVERSITETA 2015
4. Edasi I. A., Vdovenko Z. V. “Gosudarstvennye zakupki: osnovnye napravleniya i tendensii” Uspexi v ximii i ximicheskoy texnologii. TOM XXXI. 2017. № 7
5. <https://www.oecd.org/governance/publicprocurement/>
6. Ponomareva O.V. Gosudarstvennye zakupki kak instrument torgovoy politiki v razvivayushixsya stranax // Rossiya: Vneshneekonomicheskii vestnik, No 9, 2014. - S. 101.
7. <https://stats.oecd.org/Index.aspx?QueryId=94406h>
8. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 28.05.2018 y., 10/18/3016/1279-son



9. Sh.M.Boymurodovning “Davlat xaridlarini amalga oshirishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi” iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali

10. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2025-yil 6 oyligi hisoboti

11. Кодекс Российской Федерации об административных правонарушениях



Research Science and
Innovation House

